

**BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHILARIDA TASHKILIY-
PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH****Muxlisov Sodikjon Saidjonovich***BuxDU Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar
kafedrası dotsenti, (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak informatika o‘qituvchilarida tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tahlil qilingan. Bundan tashqari tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirishda bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy faoliyati tuzilishi, komponentlari, mezonlari va ko‘rsatkichlarini takomillashtirilgan.

Kalit so‘zlar: axborotlashtirish, ta’limda elektron axborot resurslarni yaratish, mediakompetentlik, preferensiyalar, tashkiliy-pedagogik kompetentlik.

Аннотация. В данной статье проанализированы педагогико-психологические возможности развития организационно-педагогической компетентности у будущих учителей информатики. Кроме того, совершенствуется структура, компоненты, критерии и показатели профессиональной деятельности будущих учителей информатики в развитии организационно-педагогической компетентности.

Ключевые слова: информатизация, создание электронных информационных ресурсов в образовании, медиакompetentность, предпочтения, организационно-педагогическая компетентность.

Kirish. Jahon miqyosida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash, ularni ta’lim tizimlariga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga hissa qo‘shadigan omillar va imkoniyatlarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Turli xalqaro tashkilotlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Axborot jamiyati bo‘yicha Butunjahon sammitining tashkil etilishi, ushbu sammitda axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid muammolarni hal qilish, axborot jamiyatini qurish bo‘yicha umumiy qarash, istak va majburiyatga erishish mazmunidagi maqsadlarning belgilanishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish, soha mutaxassislaridan bo‘lgan informatika o‘qituvchilarini tayyorlash, ularni tashkiliy-pedagogik va kasbiy jihatdan yetuk shaxs etib shakllantirishning ahamiyatligini ham aks ettiradi.

Informatika o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi, kompyuter texnologiyalaridan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish, axborot xavfsizligini ta’minlash, ta’lim jarayonlarini axborotlashtirish, ta’limda elektron axborot resurslarni yaratish, mediakompetentlik, moslashuvchi WEB tizimlarni yaratishning ilmiy-

nazariy asoslari D.Abduazimova, D.Abduraximov, A.Abdugodirov, M.Allamberganova, M.Aripov, A.Ashirova, S.Babadjanov, U.Begimqulov, O.Davlatov, F.Zokirova, I.Yo‘ldoshev, T.Kalekeyeva, M.Mamarajabov, A.Maxmudov, N.Muslimov, N.Taylaqov, S.Tursunov, M.Fayziyeva, D.Esonbayeva, I.Eshmamatov, N.Qayumova, A.Haitovlar tomonidan tadqiq etilgan.

So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini davlat boshqaruvi va davlat xizmatlari ko‘rsatishning barcha sohalariga joriy etish bo‘yicha bosqichma-bosqich o‘tkazilayotgan islohotlar axborot xizmatlarini ilgari surish, “elektron hukumat” tizimini rivojlantirish va amalga oshirish, xalq bilan muloqot qilish va aholining kundalik muammolarini joylarda o‘z vaqtida hal qilishning samarali mexanizmlarini yaratish, AKTdan foydalanishga asoslangan iqtisodiyotning yuqori texnologik tarmoqlarini shakllantirish va faol rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish, axborot texnologiyalari mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va buyurtmachilariga qo‘shimcha imtiyozlar va preferensiyalar berish hisobiga ushbu tarmoqda ilm-fan, ta‘lim va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvini yanada chuqurlashtirish kabi maqsadlarning belgilanishi bo‘lajak informatika o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi mazmunini tadqiq etishning muhimligini ifodalaydi.

Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining tashkiliy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish informatika o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi mazmunini aniqlashtirishni shuningdek, respublikamizda ushbu sohaga oid me‘yoriy-huquqiy asoslarni tahlil etishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash ishlarining bosh huquqiy asosi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning “Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar” deb nomlangan IX bob 42-moddasida “Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi”, deya ta‘kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd etilganidek, “Ommaviy axborot vositalari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlarni xolis yoritish bilan birga, joylardagi mavjud dolzarb muammolarga davlat idoralari va jamoatchilik e‘tiborini qaratib, ularni bartaraf etishga barcha darajadagi rahbarlarni da‘vat etib, undab kelayotgani alohida ta‘kidlab o‘tilganligi, shuningdek, so‘z erkinligini ta‘minlash, ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirish, jurnalist va blogerlarning erkin faoliyat yuritishi uchun huquqiy asoslar yanada kuchaytirilishi” Respublikamizda informatika o‘qituvchilarini tayyorlash, ularni kasbiy rivojlantirishning ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

D.Abduazimova va mualliflar jamoasi tomonidan nashr ettirilgan “Telekommunikatsiya tizimlarining globallasuvi sharoitida bolalar axborot

xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yo'riqnoma"da esa, internet, ommaviy axborot vositalaridan tarqatilayotgan axborotlardan bolalarni himoyalash masalalari bo'yicha tavsiyalar berilgan.

D.M.Esonbayevaning "Informatika va hisoblash texnikasi asoslaridan noan'anaviy darslar va ularni o'tish metodikasi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiya ishida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-9-sinflarida informatika ta'limida noan'anaviy darslar tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan va noan'anaviy dars texnologiyalarining mazmun-mohiyati ochib berilgan.

D.B.Abduraximovning "Kasb-hunar kollejlarda informatikani ta'lim turlari aloqadorligida o'qitish metodikasi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida kichik mutaxassislarining malakasini oshirishda informatika sohasida internet va masofaviy ta'lim asosida o'qitish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Xulosa

Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahlili asosida bo'lajak informatika o'qituvchisining kasbiy faoliyati va kasbiy tayyorgarligi mazmunini quyidagicha izohlashimiz mumkin: informatika o'qituvchisining kasbiy faoliyati mutaxassisning malakasi va ta'lim darajasini o'zida namoyon etib, iqtisodiy, sotsiologik kasbiy faoliyatning psixologik tomoni va axloqiy jihatlarni nazarda tutsa, kasbiy tayyorgarligi zaruriy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish asosida yuzaga keluvchi shaxs ijtimoiy kompetentligining o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, mutaxassisning butun faoliyati davomida ma'naviy-axloqiy hamda kasbiy sifatlarining yanada takomillashishi, kasbiy kompetentlikning shakllanishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXAT

1. Арипов М.М. Юлдашев З.Х. Система определения рейтинга активности преподавателей кафедр // XII Российская конференция с международным участием "Распределенные информационно-вычислительные ресурсы" (ДИСРЪ2008) – Академгородок, Новосибирск, 2008 г.
2. Бордовская Н.В., Реан А.А. Педагогика: Учебник для вузов. – СПб.: Питер, 2001. – 304 с.
3. Загвязинский В.И. Исследовательская деятельность педагога: Учебное пособие для студентов высших педагогических учебных заведений. – М.: Академия, 2006. – 176 с.
4. Матросов, В.Л. Комплексный подход к вузовской подготовке учителя информатики как базисный компонент опережающего образования [Текст]: сбор.ст. «Научные труды МШУ». Серия «Естественные науки» / В. Л. Матросов, М. М. Абдуразаков. - М.: Прометей, 2000. - С. 131-143.